

IJODIDA O'ZBEK RUHIY-MA'NAVIY OLAMINI AKS ETGAN RUS SHOIRI

Maxmudova Sarvinoz Ilhomjon qizi

O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti

Sharq filologiyasi fakulteti Arab tili yo'nalishi, 2-bosqich talabasi

Umurzakova Oygul Umarovna

*Ilmiy rahbar: O'ZDJTU Arab tili tarjima nazariyasi va amaliyoti
kafedrasi o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqola rus shoiri Aleksandr Faynberg ijodini o'rganishga bag'ishlangan. Shoir she'riyatida o'zbek madaniyati va ruhiy-ma'naviy qadriyatlar aks etgan. U mashhur o'zbek shoirlarini rus tiliga tarjima qilgan va O'zbekistonning tabiatini hamda an'analarini rus tilidagi o'quvchilarga yetkazgan. Uning ijodiy uslubi Sharq va G'arb ta'sirini uyg'unlashtirib, o'ziga xos she'riy ovoz yaratadi.

Kalit so'zlar: Aleksandr Faynberg, o'zbek madaniyati, rus she'riyati, tarjima, ruhiy-ma'naviy meros

Annotation. This article examines the work of Aleksandr Faynberg, a Russian poet who reflected Uzbek culture and spiritual values in his poetry. He translated prominent Uzbek poets and highlighted Uzbekistan's traditions and nature to Russian readers. His style blends Eastern and Western influences, creating a unique literary voice.

Key words: Aleksandr Faynberg, Uzbek culture, Russian poetry, literary translation, spiritual heritage

Аннотация. Статья посвящена творчеству Александра Файнберга, русского поэта, отражавшего в своей поэзии узбекскую культуру и духовные ценности. Он переводил известных узбекских поэтов и представлял традиции и природу Узбекистана русскоязычной аудитории. Его стиль сочетает восточные и западные влияния, создавая уникальный литературный голос.

Ключевые слова: Александр Файнберг, узбекская культура, русская поэзия, литературный перевод, духовное наследие

KIRISH

O'zbekiston adabiy muhitida rus tilida ijod qilgan shoirlarning roli ahamiyatli bo'lib, ularning asarlarida milliy madaniyat va ruhiyat tasvirlari o'ziga xos iz qoldirgan. Shu kontekstda Aleksandr Faynberg ijodi alohida o'rganishga loyiqdir. U rus tilida ijod qilgan bo'lsa-da, O'zbekiston tabiatini, xalqona urf-odatlarini va madaniyatini chuqur sevgan, ijodida ularni zamonaviy she'riyat shaklida aks ettirgan. Ushbu maqola Faynbergning hayoti, ijodi, ijodiy uslubi va O'zbek madaniyatiga bo'lgan hissasini ilmiy tahlil qilishga bag'ishlangan.

➤ Hayoti va ta'limi

Aleksandr Faynberg 2 noyabr 1939 yilda Toshkent shahrida tugʻilgan. Boshlangʻich taʼlimni Toshkent topografiya texnikumida olgan, soʻngra Toshkent davlat universiteti filologiya va jurnalistika fakultetida tahsil olgan. 1961 yilda I. G. Koval bilan oilaviy hayotga qadam qoʻydi. Shoir 14 oktyabr 2009 yilda Toshkentda olamdan oʻtgan. U Oʻzbekiston xalq shoiri unvoni bilan taqdirlangan va 2004 yilda Pushkin medali bilan mukofotlangan.

➤ **Ijodi va asarlari**

Faynbergning ijodi 15 dan ortiq sheʼriy kitoblar bilan boyitilgan. Ularning eng mashhurlari: “Velotrekler” (1965), “Etyud” (1967), “Bir lahza” (1969), “Osmon muhri” (1982), “Qisqa toʻlqin” (1983), “Erkin sonetlar” (1990), “Barg” (2008). Shoir shuningdek mashhur oʻzbek shoirlari Alisher Navoiy, Abdulla Oripov va Erkin Vohidov asarlarini rus tiliga tarjima qilgan. Faynberg kino sohasida ham faol boʻlib, “Mening akam”, “Jazirama oftob tagida”, “Qandahorda toblanganlar” kabi filmlarning ssenariylarini yaratgan.

➤ **Ijodiy uslubi**

Faynbergning sheʼriyati oʻziga xosligi bilan ajralib turadi. U sheʼrlarida Gʻarb va Sharq, oʻtgan va hozirgi zamon uygʻunligini, insonparvarlik va vatanparvarlik ruhini yuqori darajada ifodalaydi. Hazil va lirika elementlari bilan boyitilgan nozik falsafiy qarashlar uning asarlarida oʻziga xos ijodiy ohang yaratadi. Aleksand Arkadayevich Faynberg... Bir qarashda rus millati yozuvchisini eslatsa-da, qalban turonlik, qalban oʻzbekistonli. Uning har bir misrasida vatanga boʻlgan muhabbat barq urib turibdi. U ikki xil madaniyatni mujassamlashtira olgan isteʼdodli shoirdir. Uning qalamidan toʻkilgan misralarni oʻqishimiz davomida ham bunga amin boʻlamiz

➤ **Madaniyatlararo ahamiyati**

Aleksandr Faynberg rus tilida ijod qilgan boʻlsa-da, u Oʻzbekistonning milliy qadriyatlari, tabiat manzaralari va urf-odatlariga samimiy mehr bilan qaragan. Uning asarlari oʻzbek adabiyotini rus tilida keng jamoatchilikka tanitishda muhim rol oʻynadi. Shu bilan birga, u ijodida oʻzbek xalqining ruhiy-maʼnaviy olamini uygʻunlashtirgan, madaniyatlararo muloqotga hissa qoʻshgan.

XULOSA

Aleksandr Faynberg ijodi Oʻzbekiston adabiy va madaniy maydonida oʻziga xos iz qoldirdi. Uning sheʼrlari, tarjimalari va kino ssenariylari bugun ham adabiyot ixlosmandlarini ilhomlantirishda davom etmoqda. Shoirning ijodi nafaqat rus tilida, balki oʻzbek ruhiy-maʼnaviy olamini aks ettirgan asarlar orqali ham qadrlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qodirov Sh. Sheʼriyat tahlili va uslublari, Toshkent 2019
2. Rustam Musurmon. Rus tilidan tarjimalar. Toshkent 2021
3. Tursunov D. Oʻzbek sheʼriyatida metafora va ramzlar . - Toshkent 2018

4. Aleksandr Faynberg . Qoralamaga qasida
5. Xudoyberdiyev A. Zamonaviy o'zbek adabiyotida tabiat motivlari